

O'TKIR HOSHIMOVNING "BAHOR QAYTMAYDI" ASARIDAGI BARQAROR BIRIKMALARNING LINGVISTIK TAHLILI (FRAZELOGIZMLAR MISOLIDA)

Termiz davlat universiteti talabasi
Xursanova Mahliyo Sunnatulla qizi
Ilmiy rahbar: D.A.Ergasheva

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning "Bahor qaytmaydi" asarida keltirilgan iboralar va ularning lingvistik tahlili iboralar asosida ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *barqaror birikmalar, frazeologizm, lingvistik tahlil, leksema, so'z shakli.*

Abstract: *In this article, the expressions and their linguistic analysis are presented in O'tkir Hashimov's work "Spring does not return".*

Key words: *stable compounds, phraseologism, linguistic analysis*

Frazeologiya (grekcha - "phrasis" ifoda va "logos" ta'limot) atamasi ikki ma'noda ishlatiladi: 1) til frazeologik tarkibini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi; 2) shu tilning frazeologizmi majmui. Frazeologiya leksikologiya bo'limining tarkibiy qismidir. Frazeologizm tashkil etuvchisiga ko'ra qo'shma leksema, so'z birikmasi va gapga o'xshaydi. Biroq ular ko'proq qo'shma leksema kabi til jamiyati ongida tayyor va barqaror holda yashaydi. Boshqacha aytganda, frazeologizm lisonda barcha lisoniy birliklarga xos bo'lgan umumiylik tabiatiga ega va nutqda xususiylik sifatida namoyon bo'ladi. Frazeologizm lug'aviy birlik bo'lganligidan u nutq jarayonida gap tarkibida mustaqil so'z kabi harakat qiladi - bir gap bo'lagi yoki kengaytiruvchi sifatida keladi: 1. *Madamin bo'yniga qo'yilgan aybnomadan tamom hovuridan tushdi.* (P.Tur.) 2. *Stol yoniga kelguncha uning boshi aylanib ketdi.* (S.Zun.) 3. *Qosh qo'yaman deb ko'z chiqaradigan bunday hodisalar hali ham onda-sonda ro'y berib turibdi.* 4. *Kavushini to'g'rilab qo'yish kerak.* (As.Mux.) 1- va 2-gaplarda frazeologizmlar gap markazi - kesim mavqeyida, 3- gapda so'z kengaytiruvchisi aniqlovchi va 4- gapda butun bir egasiz gap vazifasida kelgan. [1.129]

Nutqda fikr ifodalash uchun barqaror birikmaga ham ehtiyoj mavjud. Masalan, kuchli hayron bo'lib qolganlikni ifodalash uchun *hayron bo'lmoq* fe'li yetarli emas. Shunda barqaror birikma qo'llanadi: *Og'zi ochilib qoldi.* [2.190]

O'zbek tilida barqaror birikma sifatida, odatda, maqol, matal, ibora, tasviriy ifoda e'tirof etiladi (ammo maqol va matallarning barqaror birikma ekanligi munozarali).[2.191]

Barqaror birikma qo'shma leksema va erkin so'z birikmasidan quyidagi xususiyati bilan farq qiladi:

1. Barqaror birikmada birdan ortiq so'z birikib, ko'chma ma'no ifodalaydi.
2. Barqaror birikmani tashkil etgan barcha so'z shu gap tarkibida butunligicha bir bo'lak yoki bir gap vazifasida keladi.
3. Barqaror birikmaning tarkibiy qismlari qat'iy bir qolipga kirgan bo'ladi.

Demak, alohida shakllangan, tarkibining barqarorligi bilan ajralib turadigan, yaxlitligicha qo'llanish xususiyatiga ega, tayyor holda mavjud, obrazli, jozibali, ma'no jihatdan yaxlitlangan so'zlar bog'lanmasi barqaror birikma deyiladi.

Barqaror birikmani "buzib" – tarkibini o'zgartirib bo'lmaydi. [2.191]

O'tkir Hoshimov asarlarida atrofda sodir bo'layotgan har bir narsani o'zbekning ko'zi bilan ko'rib, dunyo voqealariga sof o'zbekcha munosabat bildirish yetakchilik qiladi. Aynan shu tufayli yozuvchining deyarli har bir asari kitobxonlar tomonidan iliq kutib olingan, qalbidan muqim o'rin egallagan. "Odamlar nima derkin", "Bir tomchi shudring", "Bahor qaytmaydi", "Qalbingga quloq sol", "Uzun kechalar", "Dunyoning ishlari" qissalari kirib bormagan o'zbek xonadoni yo'q deyish mumkin. [5.398] Taniqli o'zbek yozuvchisi va jamoat arbobi O'tkir Hoshimovning "Bahor qaytmaydi" asarini lingvistik tahlil qilish barobarida unda qo'llanilgan barqaror birikmalar albatta e'tiborimizni tortadi. Yozuvchi o'zining bu asarida frazeologizmlardan o'z o'rnida va unumli foydalangan. Bu esa asarning yanada badiiyligini oshirishga xizmat qilgan. O'tkir Hoshimovda nafosat tuyg'usi behad kuchli. Uning qahramonlari askari go'dakday beg'ubor, nafosat tuyg'usiga boy, hissiyotli, o'ta ta'sirchan odamlardir. "Bahor qaytmaydi" qissasi 1969-yilda yozilgan. Qissada yozuvchi iste'dodli, biroq uning qadriga yetmagan, ulug' maqsadlardan mahrum xudbin yigitning tanaz-zul tarixini, ruhiy-ma'naviy inqirozini san'atkorona tahlil etib bergan. Oradan o'tgan 45 yil qisqa muddat bo'lmasada, voqealar bugun ham davom etyapti. Asar bugun ham qimmatini yo'qotgan emas. Bugun ham Alimardon kabilar urug'lab ketgan. Zamonaviy Alimardonlarning qilmishlari oqibatida qanchadan-qancha Muqaddamlar baxtsiz, Shavkat kabilar yetim bo'lib qolayotgani ham bor gap. Qaniydi, ular Alimardonning fojeasidan, Muqaddamning qismatidan xulosa chiqarib olishsa?! Hayotdagi Alimardon To'rayevlar uchun ushbu asar ko'zgu, hayotiy saboq bo'lsa ajab emas. Asarda keltirilgan "ko'zi ilinmoq" – bexosdan uxlab qolmoq iborasi qahramonning charchagan, holsizlik holatlarini ifodalashga xizmat qilgan. *U jahl bilan ko'zlarini chirt yumib, ko'rpani boshiga tortdi. Yana ko'zi ilinayotgan edi, gurs-gurs qadam tovushi eshitildi.* (O'tkir Hoshimov, "Bahor qaytmaydi", 6-b); Muqaddam shu yerga Bo'ston guzaridagi do'xtirxonaga hamshira bo'lib kelibdi... – Ha, shuning uchun **og'zi qulog'ida ekan-da!** *Alimardonning ko'nglida yana chalkash tuyg'u uyg'ondi.* (O'tkir Hoshimov, "Bahor qaytmaydi", 9-b) Ushbu matndagi "og'zi qulog'ida" iborasi qahramonning nihoyatda xursand, shod ekanligini ifodalab bergan; *Alimardon yaproqlarning pirqirab uchishini tomosha qila-qila pinakka ketdi.* (O'tkir Hoshimov, "Bahor qaytmaydi", 9-b). Mazkur matndagi "pinakka ketmoq" iborasi qahramonning jimgina uxlab qolganlik holatini ifodalagan bo'lib, "pinak" so'zi "uyquga elitgan holat", "mudroq" ma'nolarni ifodalaydi; *Bo'g'ilib yo'tala boshladi. Endi toqati toq bo'lganida o'tin lov etib yonib ketdi.* (O'tkir Hoshimov, "Bahor qaytmaydi", 10-b) Ushbu matnda keltirilgan ibora orqali qahramonning betoqatlik, sabrsizlik holatlarini ifodalab kelgan. *Qo'lini tushirdi-yu, ko'cha eshik oldida o'ziga qarab turgan Muqaddamni ko'rib xijolatdan yuzlari lovillab ketdi.* (O'tkir Hoshimov, "Bahor qaytmaydi", 10-b) Matndagi "yuzlari lovillab ketmoq" iborasi orqali muallif qahramonning uyalish, hayajonlanish kabi holatlarini ifodalaydi. *Anvar muzdek suvni his qilib, eti junjikib ketdi.* (O'tkir Hoshimov, "Bahor qaytmaydi", 15-b) Ushbu matndagi ibora qahramonning biror narsadan seskanib ketganlik holatini ifodalab kelgan; *Men ham tezroq qaytishim kerak. Alimardon xunob bo'lib o'tirgandir.* (O'tkir Hoshimov, "Bahor qaytmaydi", 19-b)

Berilgan matnda qahramonning nimadir haqida o'ylab bezovta bo'lgan, sarosimaga tushish holatini ifodalangan; *Alimardon uning oppoq yuzidan ko'z uzolmas, xalatining ochiq yoqasidan ko'rinayotgan xoli ham, kunduzday qoshlari ham yuragini o'rtar edi.* (O'tkir

Hoshimov, “Bahor qaytmaydi”, 20-b) *Muqaddam bir lahza gangib qoldi. U o'zini yo'qotib qo'ygan, Alimardonning og'ushida talpinar, ammo chiqib ketolmas edi.* (O'tkir Hoshimov, “Bahor qaytmaydi”, 21-bet) Mazkur matn orqali qahramonning gangib qolish - o'ylayverib charchamoq, nima qilishini bilmay qolgan holatini ifodalab kelgan; - *Ha, borib turibman... - U shunday dedi-yu, ikki yuzining lovillab ketganini sezib, tilini tishlab qoldi.* (O'tkir Hoshimov, “Bahor qaytmaydi”, 23-bet) Mazkur matndagi ibora orqali qahramonning hayronlik, qo'rquv kabi holatlari ifodalangan; *Anvar Muqaddamning nimadandir ko'ngli cho'kkanini sezdi, shekilli, ketidan gapirib qoldi.* (O'tkir Hoshimov, “Bahor qaytmaydi”, 25-b) *Ko'ngli chukmoq* iborasi qahramonning *xafalik, parishonlik* holatlarini ifodalagan; *O'zinning Anvar akam yaxshi! - U xayolida shunday dedi-yu, ammo ko'nglining bir chekkasini ayovsiz kemirayotgan chidab bo'lmas bir kuch tag'in junbishga keldi.* (O'tkir Hoshimov, “Bahor qaytmaydi”, 24-bet) Ushbu ibora orqali muallif qahramonning majoli qolmagan toliqqan, charchagan holati ifodalangan.

Asardagi bir nechta frazeologizmlarni tahlili natijasida shuni aytish mumkinki, qissada ishlatilgan iboralar bugungi kunda ham xalq tilida sermahsul ishlatilib, insonlarning turli xil kechinmalarini ifodalashga xizmat qiladi.

Frazeologik birikmalarni o'z ichiga olgan badiiy asarlarni tahlil qilish kitobxonlarni badiiy asarga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi va asardagi g'oyani yana ham yaqqol ochib berishga xizmat qiladi. Shuningdek, frazeologik birliklarni o'rganish kitobxonlarning savodxonligini hamda so'z boyligini oshirishda ham muhim vazifa bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. -T.:”Fan va texnologiya”, 2009. - B. 416.
2. B.Mengliyev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -T.: Tafakkur bo'stoni, 2018.
3. O'.Hoshimov. Bahor qaytmaydi: qissa va hikoyalar. -T.: Yangi asr avlodi, 2019, - B. 280.
4. Sh.Rahmatullayev. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. -T.: O'qituvchi, 1978.
5. S.Mirzayev. -XX asr o'zbek adabiyoti. -T.: Yangi asr avlodi, 2005-yil.